UDK: 93(99-94(575.1) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss2/a58**

BUXORO XONLIGINING ROSSIYA BILAN SIYOSIY ALOQALARI TARIXIDAN

ИЗ ИСТОРИИ ПОЛИТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ БУХАРСКОГО ХАНСТВА С РОССИЕЙ

FROM THE HISTORY OF POLITICAL RELATIONS OF THE BUKHARA KHANATE WITH RUSSIA

Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich[1]

[1]**Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich** − *O‘zMU dotsenti, t.f.n.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buxoro xonligining Rossiya bilan dastlabki rasmiy elchilik munosabatlari tarixi yoritib berilgan. Maqolada ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarda savdo-sotiq, iqtisodiy va siyosiy omillar asosiy o‘rinda turganligi shuningdek, rasmiy qabul marosimlari, o‘zaro sovg‘alar almashinuvi masalalari rus elchilari, harbiylari, tadqiqotchilari asarlari bilan bir qatorda mahalliy manbalar orqali asoslab berilgan.

Аннотация

В данной статье освещена история ранних официальных дипломатических отношений Бухарского ханства с Россией. В .статье на основе местных источников и ряда произведений русских послов, военных и исследователей обосновано, то что основной фактор взаимоотношений между этими двумя государствами, это торговые, экономические и политические отношения.

Abstract

This article highlights the history of the early official diplomatic relations of the Bukhara Khanate with Russia. In the article, based on local sources and a number of works by Russian ambassadors, military men and researchers, it is substantiated that the main factor in the relationship between these two states is trade, economic and political relations.

Kalit so‘zlar: *Buxoro xonligi, Rossiya, Abdullaxon II, Mixail Fyodorovich, Imomqulixon, Ashtarxoniylar, Nodir Muhammad, Hoji Faruq, Ubaydullaxon, Muhammad Yusuf Qosimov.*

Ключевые слова: *Бухарское ханство, Россия, Абдуллахан II, Михаил Фёдорович, Имамқулихан, Аштарханиды, Надир Мухаммад, Хаджи Фарук, Убайдуллахан, Мухаммад Юсуф Касимов.*

Key words: *Bukhara Khanate, Russia, Abdullakhan II, Mikhail Fedorovich, Imamkulikhan, Ashtarkhanids, Nadir Muhammad, Haji Faruk, Ubaydullakhan, Muhammad Yusuf Kasimov.*

KIRISH

Hofiz Tanish Buxoriy Buxoro xonligi va Rossiya o‘rtasidagi elchilar almashinuvi haqida ma’lumot berib, buxorolik elchilarning Moskvadan qaytgan vaqti 1583 yilning qish oyiga to‘g‘ri kelganligini, havoning qattiq sovuq bo‘lganligini, shuningdek, tuhfa sifatida Moskvadan 12 ta o‘rgatilgan lochin, Darband sovutlari va tuyalar keltirilganligini qayd etadi.[1,119]

Buxoro va Rossiya o‘rtasidagi rasmiy elchilar almashinuvi Fyodor Ivanovich hukmronligi davrida boshlangan. 1589-yilda Buxorodan Moskvaga birinchi bo‘lib Abdullaxon II yorlig‘ini olib kelgan elchi Muhammad Ali hisoblanadi. Buxoro elchisi keltirgan yorliqda rus podshosining to‘liq unvonlari qayd etilmaganligi hamda ba’zi bir qo‘pol so‘zlarning yozilganligi uchun elchi qabul qilinmagan. Lekin elchi podshoning g‘azabiga uchramasdan avf etilgan. Boyon Boris Godunov tomonidan podshoning buyrug‘iga binoan yozilgan maktubda Buxoro xoniga boshqa barcha davlat rahbarlari rus podshosiga hurmat yuzasidan “podsho hazrati oliylariga” deb yozishini maslahat qilgani holda, elchiga so‘ralgan lochinlari berilganligini, elchilik missiyasi tomonidan olib kelingan tovarlar bojdan ozod etilganligi qayd etiladi [2,156].

Bu tushunmovchilik keyingi davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda o‘z aksini topdi. Oradan bir necha yil o‘tib, Buxorodan kelgan elchi Kutuludosh (Qutlug‘ mirzo) Moskva hukumati tomonidan ushlab qolinadi. Natijada 1595-yili sulton Nazar (Shohnazar) boshchiligida boshqa bir elchilik guruhi jo‘natiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Professor N.I.Veselovskiyning (1848–1918) ma’lumotlariga ko‘ra, I.D.Xoxlov Qozonning “boyon bolalaridan” kelib chiqqan. Aka-uka Pazuxinlarning Buxoroga sayohati to‘g‘risida

A.N.Truvorov muharrirligi ostida arxeografik komissiya tomonidan nashr etilgan to‘plamda batafsil tanishish mumkin [3,91].

XVII asrda Rossiya va O‘rta Osiyo xonliklari o‘rtasidagi munosabatlar tartibsiz holatda bo‘lib, tomonlarning har biri o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini aniq bajarmaganlar. Rossiyaning O‘rta Osiyo davlatlari bilan yaqinlashuviga asosiy sabab – iqtisodiy va siyosiy omillar bo‘lgan. Rossiya o‘ziga siyosiy ittifoqchi topishga va o‘z iqtisodini (asosan savdo munosabatlari) kengaytirish harakat qildi. Eron, Hindiston va Xitoydan keluvchi muhim savdo yo‘llarida joylashgan Qozoq mulklari, Kichik va O‘rta yuz, Xiva va Buxoro xonliklari mintaqada o‘z mavqeini mustahkamlashga harakat qilayotgan Rossiya ma’murlari uchun alohida qiziqish uyg‘otdi [4,33].

1619-yili Mixail Fyodorovich hukmronligi yillarida Imomqulixon tomonidan yuborilgan elchilar guruhi rus boyonlari, amaldorlari va dvoryanlari ishtirokidagi rasmiy qabul marosimida Buxoro xonining yorlig‘ini topshiradi hamda rus podshosining in’omi – kumush qadah, 40 ta suvsar va safar xarajatlari uchun 6 rublni qabul qilib oladi. Bundan tashqari, ushbu elchilik guruhi bilan Buxoroga rus dvoryani Ivan Xoxlov elchi qilib jo‘natiladi [5,157].

XVII asrda birinchilardan bo‘lib, Markaziy Osiyo davlatlariga tashrif buyurgan rus elchisi Ivan Danilovich Xoxlov bo‘lgan. Uning ismi birinchi marta 1600-yilda Moskvaning Eron bilan bog‘liq aloqalarida qayd etilgan[6,28].

Xoxlov missiyasi oldida turgan vazifalar 1620-yil 22-iyunda qirol tomonidan tasdiqlangan [424-439] va u uchun maxsus tuzilgan elchilik topshirig‘ida belgilab qo‘yilgan edi [17]. Unga Buxoro xonligidagi rus asirlarini ozod qilish, Imomqulixon bilan savdo va siyosiy ittifoq tuzish, shuningdek, “qanday qilib bo‘lmasin qat’iy ravishda Buxoro xonligining Turk sultoni, Fors shohi, Gruziya yerlari hamda Xiva xonligi bilan munosabatlari, qaysi davlatlar bilan do‘stligi, yozishmalari mavjudligi, qaysi davlatlar bilan o‘zaro aloqalari yomonligi, dushmanlari, Buxoro xonining harbiy jihatdan qay darajada kuchliligi, agar biror bir davlat bilan urush chiqadigan bo‘lsa, qaysi yuqoridagi davlatlardan Buxoro birinchilardan bo‘lib yordam kutishini yashirincha aniqlash topshirilgan” [9,437-438].

1620-yil 22-iyunda qirol tomonidan tasdiqlangan maxsus topshiriq shu yilning 13-iyulida Qozonga yetkazilib, Xoxlov boshchiligidagi elchilik tarkibiga tarjimon Ivan Tirkov va tilmoch Semeyko Gerasimovlar kiritiladi. Yo‘lga chiqishga tayyorgarlik uchun bor yo‘g‘i bir hafta vaqt ajratiladi [10,60].

NATIJALAR

I.D.Xoxlov boshchiligidagi elchilik missiyasi 1620 yilning 21 iyulida Buxoro va Xiva elchilari Odamboy va Rahimqullar hamrohligida Qozondan yo‘lga chiqib, Astraxan – Kaspiy dengizi – To‘pqo‘rg‘on buxtasi – Urganch – Xiva – Xonqa – Qizilqum – Xayrabod orqali Buxoroga yetib kelgan [11,389-397]. Bu elchilik yo‘lga ketgan vaqti bilan qo‘shib hisoblaganda Buxoroda jami 30 oyga yaqin – 1620-yil 21-iyuldan 1662-yil 12-dekabrgacha bo‘ldi [12,203].

Moskva davlati, shuningdek, Buxoroning No‘g‘oy O‘rda va Terek knyazligi va Astraxan o‘rtasidagi munosabatlari masalalariga alohida qiziqish bildirishi tabiiy hol edi. Chunki Buxoroda hukmronlik qilayotgan To‘qay-Temuriylar (Ashtarxoniylar) sulolasi Buxoroga kelguncha no‘g‘oylar va Shimoliy Kavkaz knyazliklari bilan yaxshi aloqada bo‘lgan [13,52-59].

Xoxlov boshchiligidagi elchilik missiyasi Buxoroda ikki yil: 1620-yildan 1622-yilning 13-sentabrigacha bo‘lgan. Elchi tomonidan to‘plangan qiziqarli ma’lumotlar Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy, etno-siyosiy tarixini o‘rganishda bugungi kunda ham qimmatli manba vazifasini o‘tab kelmoqda [14,17]. Xoxlovning Buxoroning Balx bilan, Safaviylar Eroni bilan, Buyuk Mo‘g‘ullar (Boburiylar Hindistoni – A.X.) davlatlari bilan aloqalari va qozoqlarning Samarqandga bosqinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlari e’tiborga loyiq [15,1891-28].

Xoxlovga Buxoro xonining oldida o‘zini qanday tutishi kerakligi, nimani gapirib qanday javob qaytarishi, bir vaqtning o‘zida bir nechta davlatlarning elchilari (Eron, Boburiylar Hindistoni, Usmoniylar davlati) bitta dasturxonga taklif qilinsa, boshqa elchilardan yuqorida o‘tirishni talab qilishi, agarda talab qondirilmasa, ovqatlanmaslik [16,237], xonning rus asirlari, ipakchilik, qo‘shni yerlar haqidagi rejalarini bilib olish to‘g‘risida batafsil ko‘rsatma berilgan. Buxoro shahriga kelgan ushbu birinchi rus elchisining sayohati sarguzashtlarga boy bo‘lgan. Elchi Buxoroga kelgan vaqtda xon Samarqandda bo‘lganligi sababli Samarqandga borishiga to‘g‘ri kelgan [17,157].

O‘zining sayohati haqida hikoya qilib bergan elchi xonning qabulida bo‘lganligi, rus podshosi tomonidan yuborilgan yorliqni dodxoh undan olib xonga uzatmoqchi bo‘lganida yorliqni

dodxohga bermagani, hukmdorining topshirig‘iga ko‘ra, xonga ta’zim bajo keltirib shaxsan o‘zi xonga topshirmoqchiligini aytadi. Xon esa elchiga yorliqni topshirishga imkon bermaydi. Ivan Xoxlov rus knyazi Mixail Feodorovichning buyrug‘iga binoan knyaz nomidan Imomqulixonga ta’zim qiladi. Bunga javoban xon rus knyazi nomidan qilingan ta’zimga o‘rnidan turmaydi [18,157]. Rus elchisi boshqa barcha hukmdorlar xoh nasroniy, xoh musulmon bo‘lsin, turk sultoni ham, fors shohi ham podsho va buyuk knyaz Mixail Fedorovich nomidan ta’zim bajo keltirilganda, do‘stlik va birodarlik hurmati yuzasidan o‘rnidan turishi va knyazning salomatligi haqida so‘rashi lozimligini aytadi. Imomqulixon esa na o‘rnidan turadi va na rus podshosining sog‘ligini so‘raydi. Imomqulixon esa ko‘p yillardan beri rus podshosi tomonidan avvalgi xonlarga biror marta elchi kelmaganligini, Ivan Xoxlov esa birinchi elchi ekanligini, xon rus podshosining nomidan qilingan ta’zimga va yoqimli so‘zlarni eshitib xursand bo‘lganligini va hurmatsizlik nuqtai nazaridan emas, balki, aytilgan nutqga qanday javob qaytarish haqida o‘ylab qolganini aytadi. Ivan podsho yorlig‘ini xonga olib borayotganda xon yorliqni olishni dodxohga topshiradi. Yorliq topshirilgach, elchi knyazning topshirig‘iga ko‘ra nutq so‘zlaydi. Imomqulixon elchining nutqini eshitib, rus knyazining barcha iltimoslarini bajarishini aytadi. Shuningdek, elchidan uni Buxoroda kutib turishini aytib yaqin kunlarda Buxoroda uchrashishlarini aytib jo‘natib yuboradi [19,158].

Faqat iyun oyining oxirida Imomqulixon tomonidan Odamboy orqali rus asirlarini ozod qilish haqidagi yorliqqa qo‘shib egarlangan hamda jilovlangan ayg‘ir arg‘umoq, kumush va oltin tolali oq ipakdan tayyorlangan salla, baxmal kaftan va oltin tola bilan ishlov berilgan ipak kamar kabi sovg‘alar topshiriladi [20,402]. Rus elchisi o‘z navbatida unga xonning sovg‘alarini olib kelganlarga baxmal kaftan, charm etik va olmaxon terilarini tuhva qilgan [21,159]. Elchi yo‘lga chiqishdan oldin xonning amakisi Nodir Devonbegiga asirlikdagi ruslarni o‘z vataniga qaytarish to‘g‘risidagi yorliqni olish uchun murojaat qiladi. Devonbegi esa elchini qabuliga taklif qiladi. Elchi dastlab Nodir Devonbegiga Ivan Tirkov va tilmoch Semeyko Gerasimovlar orqali 2 ta movut mato, 3 juft charm etik, 2 ta olmaxon mo‘ynasidan tikilgan po‘stin hamda 10 ta qizil rangli idish-tovoqni sovg‘a tariqasida yuboradi [22,403]. Devonbegi sovg‘alarni qabul qilib, Ivan Xoxlovni huzuriga taklif qiladi. Ikki o‘rtadagi suhbat uzoq cho‘zilgach, Nodir Devonbegi Imomqulixon tomonidan elchiga yo‘l xarajatlari uchun 4 000 xonlik [20,403] ajratilganligini va pulni Nazar Shig‘ovuldan olishi mumkinligini aytadi [24,159]. Olingan pullar elchilik missiyasi a’zolari o‘rtasida bo‘lib olinib, pulning ma’lum qismiga ot sotib oladilar va Buxoro elchisi Odamboy bilan birgalikda yo‘lda ko‘p sarguzashtlarni boshdan kechirib, 1622 yilda Astraxanga yetib keladilar. Imomqulixon tomonidan elchi Odamboy orqali Moskva podshosiga 2 ta arg‘umoq, izvosh, biriga olti suvi yuritilgan 3 ta po‘lat nog‘ora, 2 ta oddiy va 1 ta oltin va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan pichoq, 9 to‘p baxmal va 5 ta tuya yuboriladi [20,402].

Birinchi elchilar orqali ikki o‘rtada sovg‘a-salomlar almashish keyingi munosabatlarda qoida tarzida saqlanib qoldi. Keyinchalik Mixail Feodorovich hukmronligi yillarida Buxorodan Nodir Muhammad nomidan ikki marta elchilar jo‘natildi. Nodir Muhammad tomonidan rus podshosiga yozilgan va elchi Qozoqbek (Kazek-Bek) tomonidan keltirilgan yorliqda Rossiya bilan do‘stlik va savdo munosabatlarini davom ettirish hamda Rossiyada asirlikda bo‘lgan musulmon asirlarini rus asirlari bilan ayirboshlashga rozilik bildirishi to‘g‘risida yozilgan edi. Moskva podshosi tomonidan sovg‘a sifatida shaxsan elchi Qozoqbek (Kazek-Bek)ka 40 ta suvsar terisi, shuningdek, xonga 4 ta lochin va 2 pud baliq tishi topshirilgan [26,160].

1646-yilning iyun oyida podsho Aleksey Mixaylovich tomonidan Buxoroga jo‘natilgan savdogar Gribanovga otasi Mixail Fedorovich vafot etganligini, taxtga o‘zi o‘tirganligi, Nodir Muhammadning Buxoro elchisi orqali o‘zaro asirlar ayirboshlash to‘g‘risidagi va’dasini eslatib ikki o‘rtadagi do‘stlik va savdo munosabatlarini avvalgidek davom ettirish maqsadi borligini ma’lum qiladi. Gribanov Nodir Muhammadga 3 ta lochin, 17 ta kiyimlik suvsar terisi[26,160], 12 ta tulki terisi, bir pud baliq tishini podshoning sovg‘asi sifatida topshiradi. Shuningdek, Buxoro bozorlarida sotish uchun hamda ayirboshlash uchun rus tovarlari keltiriladi [26,160].

1669-yilning iyun oyida podsho Aleksey Mixaylovich tomonidan Buxoroga navbatdagi Boris va Semyon Pazuxinlar boshchiligidagi yirik elchilik missiyasi jo‘natilib, 1670-yilning mart oyida Astraxandan chiqishga muvaffaq bo‘ladilar [29,30]. Bu elchilikka Buxoro xoni Abdulazizxonga rus podshosining asirlarni ozod qilish, do‘stlik va savdo munosabatlarini davom ettirish xususidagi yorliqni topshirish [30,160-161], shuningdek, I.D.Xoxlov elchilik missiyasiga yuklatilgandek, Buxoro,

Balx va Xiva xonlarining o‘zaro hamkorligi, ularning turk sultoni, fors shohi, hind podshosi, Gruziya mulklari bilan munosabatlari, qaysi davlat bilan do‘stona, qaysi davlat bilan nozoli kayfiyatda ekanligi, bugungi kunda Xiva xonligini qaysi sulola boshqarayotganligi, Buxoro, Balx va Xiva xonlarining qaysi birining harbiy salohiyati yuqori, qaysi birining xazinasi boyliklarga to‘la kabi ma’lumotlarni aniqlash yuklatilgan edi [31,437-438].

Pazuxinlar elchilik missiyasi tarkibi elchilarning o‘zlaridan tashqari 8 kishidan: tarjimonlar Mikita Medvedev va Semyon Izmailov, soliqchi Simon Ivanov, kotib Afanasiy Proshletsov, savdogar Ivan Savelyev va uchta kamonchilardan iborat edi. Missiya Yoyiq (Ural) orqali quruqlik yo‘li bilan Qalmoq ulusi va Xivaga undan Buxoroga yo‘l oladi [32,18].

Elchilar 1670-yilning 28-iyunida Buxoroga yetib keladi. Buxoro xoni Abdulazizxon xivaliklarga qarshi yurishga chiqqanligi sababli olti oy o‘tib 30 dekabr kuni Samarqandda qabul qilinadi [33,30-31]. Elchilar Moskvada Buxoro elchilari qabul marosimiga podsho otlarida olib borilishini aytib xondan saroyga borish uchun ot jo‘natishini so‘raydi. Xonning otlari yetib kelgach, Boris Pazuxin hamda kotib Proshletsovlar podsho yorlig‘ini saroyga olib boradilar. Abdulazizxon elchi va kotibni taxtda o‘tirgan holda kutib oladi. Xon amaldorlaridan biri elchidan yorliqni olib xonga topshirmoqchi bo‘lganda elchi podsho buyrug‘iga binoan yorliqni xonga shaxsan o‘zi topshirishini aytadi. Uzoq tortishuvlardan so‘ng, ikki amaldor elchining qo‘lidan ushlab xon taxtining oldiga olib boradi. Abdulazizxon taxtdan turib yorliqni qo‘liga olib, oldiga qo‘yadi. Elchi xonga podsho Aleksey Mixaylovichning sovg‘alari, do‘stlik va savdo munosabatlarini mustahkamlash, rus asirlarini ozod qilish to‘g‘risidagi tilaklari haqida hisobot beradi. Elchilar 1671-yilning 7-yanvarida xonga sovg‘alarni topshirgan bo‘lsalar, 2 fevral kuni elchilar sharafiga dasturxon yoziladi. Elchilik Buxoroda ancha uzoq qolib ketadi. Va nihoyat 12 iyul kuni elchilarga ortga qaytish haqida xabardor qilinib, ularga xonning sovg‘alari: kaftan, salla va kamar topshiriladi. 20-sentabr kuni esa, 9 ta rus asiri Rossiyaga jo‘natiladi [34,161].

MUHOKAMA

Aka-uka Pazuxinlar Buxoroda yashab turgan vaqtlari Moskvaga 1669-yili yo‘lga chiqqan Buxoro elchisi Mulla Faruq boshchiligida uning o‘g‘li, bitta tarjimon, 16 ta xizmatchidan iborat guruh yo‘lga chiqadi va 1671-yilning 27-yanvarida Moskvaga yetib keladi [35,455,512-533]. 1671 yilning 3 fevralida podsho Aleksey Mixaylovich tomonidan katta tantanalar bilan qabul qilinadi. Elchi podshoga xon tomonidan jo‘natilgan 27 ta buxoro kamoni, 7 ta qilich, 5 ta qunduz, 4 ta qoplon terisi, qimmatbaho matolar kabi sovg‘alarni topshirdi. 1671-yilning 28-fevral kuni elchiga qaytish uchun ruxsat berilib [36,512-533], yo‘l xarajatlari uchun 441 rubl, Abdulazizxonga maxsus yorliq va 320 ta suvsar terisi topshiriladi [37,162]. Mulla Faruq Buxoroga qaytishda 4 sentabr kuni Tobolskda vafot etadi [38,530].

1675-yili Buxoro elchisi Hoji Faruq rus podshosiga xonning yorlig‘i, po‘lat nog‘ora, 9 ta Buxoro kamoni, 9 kiyimlik qunduz terisi kabi sovg‘alarini, o‘zining nomidan esa 9 ta qadahni topshiradi. O‘z navbatida rus podshosidan sovg‘alarini olib, Buxoroga rus elchisi Vasiliy Aleksandrovich Daudov boshchiligida Astraxan tatari [39,158] Muhammad Yusuf Qosimov, xizmatchi Nikifor Venyukov hamda Qozon saroyi xizmatchisi Ivan Shapkinlar bilan birgalikda yo‘lga chiqadi [40,162]. Professor N.I.Veselovskiy Hoji Faruq Moskvaga 1669-yili kelgan va u bilan aka-uka Pazuxinlar birga Buxoga qaytganligini qayd etsa [41,23], boshqa manbalarda esa Hoji Faruq Moskvaga 1675 yili kelganligi va u bilan Buxoroga Davudov boshchiligidagi elchilik missiyasi jo‘natilganligi eslatiladi [42,162].

Vasiliy Aleksandrovich Daudov boshchiligidagi elchilik guruhi Buxoroga 1676 yilning yanvar oyida yetib kelib tantanali ravishda kutib olinadi. 5 ta rus asirini ozod qilib, 33 tasini sotib olib ortga qaytadi. Shundan so‘ng ancha vaqt, 30 yillarcha to 1705-yilgacha ikki o‘rtada elchilar almashinuvi to‘xtaydi. 1705-yilning yanvar oyida Ubaydullaxon nomidan Olimbek (Kochik bek) boshchiligidagi 35 ta xonlik amaldorlari 15 ta elchilik guruhi a’zolari va savdogar Mirqurbon Mirgadoyevning 7 nafar xizmatkorlaridan iborat guruh Moskvaga elchi bo‘lib keladi [43,44]. Elchi 17-fevral kuni bo‘lib o‘tgan Menshikov saroyidagi qabul marosimida podsho Petr Alekseyevichga xonning yorlig‘ini topshiradi. Unda Ubaydullaxon o‘zining yaqinda taxtga o‘tirganligi, ruslar bilan do‘stlik munosabatlarini davom ettirish niyati borligini, knyaz Golitsindan buxoro savdogarlarini bojdan ozod qilishni iltimos qilib so‘ragan edi. Podsho Petr Alekseyevich javob yorlig‘ida o‘z navbatida xondan jo‘natilgan

elchilikdan minnatdor ekanligi, rus savdogarlarining Buxoroda, Buxoro savdogarlarining Rossiyada erkin harakat qilishlarini qo‘llab-quvvatlashini, xonga junatgan sovg‘alarini qayd etib o‘tadi [44,162].

XVIII asrda Rossiya – Buxoro munosabatlarida, asosan, buxorolik savdogarlarning Orenburgga xavf-xatarlarsiz borishi masalasi hamda ruslar tomonidan Orenburg yo‘nalishida qozoqlar tomonidan asirga olinib qul qilib sotib yuborilgan rus ko‘chmanchilari va ba’zi hollarda rus askarlarini ozod qilish masalalari yetakchilik qilgan [45,87-88].

XULOSA

XVII asrda Buxoro va Rossiya o‘rtasida olib borilgan munosabatlar tartibsiz holatda bo‘lib, tomonlarning har biri o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini aniq bajarmaganlar. Rossiyaning Buxoro bilan yaqinlashuviga asosiy sabab iqtisodiy va siyosiy omillar bo‘lgan. Rossiya o‘ziga siyosiy ittifoqchi topishga va o‘z iqtisodini, asosan savdo munosabatlarini kengaytirishga harakat qildi.

Buxoro va Rossiya o‘rtasidagi dastlabki rasmiy aloqalarda tomonlar bir-birining qabul marosimlarini bilmaganliklari tufayli tushunmovchiliklar yuzaga kelganligini, jumladan buxoroliklarning maktublarida rus podshosining unvonlari yozilmaganligi sababli qabul qilinmaganliklari yoki, rus elchisining yorlig‘ini Imomqo‘lixon tug‘ridan-to‘g‘ri qo‘liga olmasdan dodhox orqali olganligida va boshqalarda ko‘rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1 Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. («Sharafnomai shohiy») / Fors tilidan S.Mirzayev va Y.Hakimjonov tarjimasi, ilmiy muharrir, nashrga tayyorlovchi, so‘z boshi va izohlar muallifi B.Ahmedov – T.: Sharq, 2-kitob, 2000. – Б. 119.

2 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.156.

3 Борису и Семену Пазухиным, посланным в Бухару, Балх и Юргенч 1669 / Под ред. А. Н. Труворова // Русская историческая библиотека. – Т. XV. СПб.: Тип.В.С.Балашева и К°, – С. 1– 91 стр.

4 Абашин С.Н., Арапов Д.Ю., Бекмаханова Н.Е. и др. Центральная Азия в составе Российской империи. – М.: Новое литературное обозрение, 2008. – С.33.

5 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.157.

6 Веселовский Н.И. Иван Данилович Хохлов. (Русский посланник в Персию и Бухару в XVII веке): монография. – СПб: Санкт-Петербург: Тип. В.С. Балашева и К°, 1891. 28 стр.

7 Хилков Г.Д. Сборник князя Хилкова. – СПб.: Типография брат. Пантелеевыхъ, 1879. – С. 424-439.

8 Алексеев А.К. **Россия и Центральная Азия: торгово-экономические и политические отношения в XVII – XIX вв**. // Россия и Восток: феноменология взаимодействия и идентификации в Новое время. Коллективная монография. / Отв.ред.: Н.Н.Дьяков, Н.А.Самойлов. – СПб.: СПбГУ, Восточный факультет; Изд-во «Студия НП-Принт», 2011. – С. 17.

9 Хилков Г.Д. Сборник князя Хилкова. – СПб.: Типография брат. Пантелеевыхъ, 1879. – С. 437-438.; Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Центральной Азии. – Ташкент: ФАН, 1985. – С.202 - 203.

10 Веселовский Н.И. Иван Данилович Хохлов. (Русский посланник в Персию и Бухару в XVII веке). – ЖМНП, ч. 273. – М., 1891. – С. 60.

11 Хилков Г.Д. Сборник князя Хилкова. – СПб.: Типография брат. Пантелеевыхъ, 1879. – С. 389-397.

12 Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Центральной Азии. – Ташкент: ФАН, 1985. – С.203.

13 Трепавлов В.В. История Ногайской Орды. Отв. ред. М.А. Усманов. 2-е изд., испр. и доп. – Казань: Казанская недвижимость, 2016. – 764 с.; Алексеев А.К. Политическая история Тукай-Тимуридов: По материалам персидского исторического сочинения Бахр ал-асрар. – Спб.: Издательство С.-Петербургского университета, 2006. – С.52 - 92.

14 Алексеев А.К. **Россия и Центральная Азия: торгово-экономические и политические отношения в XVII – XIX вв**. // Россия и Восток: феноменология взаимодействия и идентификации в Новое время. Коллективная монография. / Отв.ред.: Н.Н.Дьяков, Н.А.Самойлов. – СПб.: СПбГУ, Восточный факультет; Изд-во «Студия НП-Принт», 2011. – С. 17.

15 Веселовский Н.И. Иван Данилович Хохлов. (Русский посланник в Персию и Бухару в XVII веке): монография. – СПб: Санкт-Петербург: Тип. В.С. Балашева и К°, 1891. 28 стр.

16 Григорьев В. Русская политика в отношении к Средней Азии. Исторический очерк // Сборник государственных знаний / Под редакцией Безобразова В.П. Том 1. – СПб.: Издание Кожанчикова Д.Е., 1874. – С. 237.

17 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.157.

18 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.157.

19 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.158.

20 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.158.

21 Хилков Г.Д. Сборник князя Хилкова. – СПб.: Типография брат. Пантелеевыхъ, 1879. – С. 402.

22 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.159.

23 Хилков Г.Д. Сборник князя Хилкова. – СПб.: Типография брат. Пантелеевыхъ, 1879. – С. 403.

24 1 хонлик = 2 рус олтини = 1 эски рус олтини = 180 рубль.

25 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.159.

26 Хилков Г.Д. Сборник князя Хилкова. – СПб.: Типография брат. Пантелеевыхъ, 1879. – С. 402.

27 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.160.

28 1 дона кийим тайёр бўлиши учун 40 та сувсар териси ишлатилган.

29 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.160.

30 Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Петроград: Типо-литография Н.И. Евстифеева, 1915. – С. 30.

31 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.160-161.

32 Хилков Г.Д. Сборник князя Хилкова. – СПб.: Типография брат. Пантелеевыхъ, 1879. – С. 437-438.; Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Центральной Азии. – Ташкент: ФАН, 1985. – С.208.

33 Алексеев А.К. **Россия и Центральная Азия: торгово-экономические и политические отношения в XVII – XIX вв**. // Россия и Восток: феноменология взаимодействия и идентификации в Новое время. Коллективная монография. / Отв.ред.: Н.Н.Дьяков, Н.А.Самойлов. – СПб.: СПбГУ, Восточный факультет; Изд-во «Студия НП-Принт», 2011. – С. 18.

34 Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Петроград: Типо-литография Н.И.Евстифеева, 1915. – С. 30-31.

35 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.161.

36 Хилков Г.Д. Сборник князя Хилкова. – СПб.: Типография брат. Пантелеевыхъ, 1879. – С. 455, 457, 512-533.; Веселовский Н.И. Прием в России и отпуск среднеазиатских послов в XVII и XVIII столетиях. – СПб.: Тип. В.С. Балашева и К°, 1884. – С. 17.; Уляницкий В.А. Сношения России с Средней Азией и Индией вXVI-XVII вв. По документам Московского Главного Архива Министерства Иностранных Дел. – Москва: Унив. тип., 1889. – С. 37, 41-45.; Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.161, 163.; Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Петроград: Типо-литография Н.И. Евстифеева, 1915. – С. 32.

37 Бу ҳақда батафсил каранг: Хилков Г.Д. Сборник князя Хилкова. – СПб.: Типография брат. Пантелеевыхъ, 1879. – С. 512-533.

38 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.162.

39 Хилков Г.Д. Сборник князя Хилкова. – СПб.: Типография брат. Пантелеевыхъ, 1879. – С. 530.

40 Профессор В.Бартольд Муҳаммад Юсуф Қосимовни Қозон татари сифатида қайд этади: Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и в России / Лекции. чит. в Имп. С.-Петерб. ун-те. – Санкт-Петербург: тип. М. М. Стасюлевича, 1911. – С. 158.

41 Завьялов В.В. Исторический обзор путешествий в Бухарию. – Уфа, Губернская Типография, 1854. – С. 6.; Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. – СПб.: Тип. бр. Пантелеевых, 1877. – С. 154.; Хилков Г.Д. Сборник князя Хилкова. – СПб.: Типография брат. Пантелеевыхъ, 1879. – С. 458, 459, 533-543.; Минаев И. Сведения о странах по верховьям Аму-Дарьи. СПб.: Тип. В.С. Балашева, 1879. VIII. – С. 217-218.; Уляницкий В.А. Сношения России с Средней Азией и Индией в XVI-XVII вв. По документам Московского Главного Архива Министерства Иностранных Дел. – Москва: Унив. тип., 1889. – С. 158-159.; Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.162.

42 Веселовский Н.И. Прием в России и отпуск среднеазиатских послов в XVII и XVIII столетиях. – СПб.: Тип. В.С. Балашева и К°, 1884. – С. 23.

43 Хилков Г.Д. Сборник князя Хилкова. – СПб.: Типография брат. Пантелеевыхъ, 1879. – С. 458, 533, 534, 540-542.; Уляницкий В.А. Сношения России с Средней Азией и Индией в XVI-XVII вв. По документам Московского Главного Архива Министерства Иностранных Дел. – Москва: Унив. тип., 1889. – С. 37, 45-46.; Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.162.

44 Хилков Г.Д. Сборник князя Хилкова ... – С. 459, 460, 543-546.; Веселовский Н.И. Прием в России и отпуск среднеазиатских послов в XVII и XVIII столетиях ... – С. 17.; Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие ... – С. 44.

45 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. – Т. II. – С.162.

46 Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие // Труды Общества Русских Ориенталистов. Петроград: Типо-литография Н.И. Евстифеева, 1915. (– 225 с.) – С. 87-88.